



## TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLIYATI MOHIYATI

*Malikova Dilrabo Muminovna*

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti*

*«Investitsiya va innovatsiyalar» kafedrasi dots. v.b.*

*Irisqulov Javohir Anvar o'g'li*

*Samarqand iqtisodiyot va servis institute talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada investitsion faoliyat tushunchasi va uning ahamiyati, tijorat banklari investitsion faoliyatining mohiyati, banklarning investitsiya va qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan operatsiyalari samaradorligi tahlili keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** investitsiya, investitsion faoliyat, tijorat banklari, qimmatli qog'ozlar.

### 1. KIRISH

Globalashuv sharoiti mamlakatlar o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini ham jadallashtirib yubordi. Bu sur'atlar ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy-gumanitar, sport, qo'yingki, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida o'z ifodasini topyapti. Bunday tendensiyalar, albatta, moliya bozorlari, tijorat banklari, moliyaviy mexanizmlar, xususan, investitsiyalar oqimi qiyofalarini mutlaqo o'zgartirib yubordi.

Binobarin, bugun qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritayotgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishayotgani aksiomaga aylanib ulgurdi.

Muhtaram O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

### 2. INVESTITSIYA FAOLIYATINING NAZARIY ASOSLARI

Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi".

Investitsiya faoliyati – investitsiya faoliyati sub'ektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlari majmui. investitsiyalar – investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa



faoliyat turlari ob'ektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- mablag'larni, shu jumladan pul mablag'larini (shu jumladan chet el valyutasini), maqsadli bank omonatlarini, paylarni, ulushlarni, aksiyalarni, obligatsiyalarni, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlarni;
- ko'char va ko'chmas mol-mulkni (binolar, inshootlar, uskunalar, mashinalar va boshqa moddiy qimmatliklarni);
- intellektual mulkka doir mulkiy huquqlarni, shu jumladan u yoki bu ishlab chiqarish turini tashkil etish uchun zarur bo'lgan, texnik hujjatlar, ko'nikmalar va ishlab chiqarish tajribasi tarzida rasmiylashtirilgan, patentlangan yoki patentlanmagan (nou-xau) texnik, texnologik, tijoratga oid va boshqa bilimlarni, shuningdek O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa qimmatliklarni.

### **3. TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLIYATI**

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari bank daromadining muhim manbalaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda yurtimizda banklar faoliyati, ayniqsa, ularning investitsion jarayonlardagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan muhim institutsional o'zgarishlar amalga oshirilayapti.

Bu yo'lda moliya bozorlari, jumladan, fond bozorini rivojlantirish, yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish va obligatsiyalar chiqarish orqali bank xizmatlari ko'lamini yanada kengaytirish, ilg'or axborot texnologiyalari asosida bank tizimini ravnaq toptirishga alohida e'tibor qaratilayapti. Aynan mazkur omillar tijorat banklarining investitsiyaviy faoliyati samaradorligini oshirish, institutsional asoslarini takomillashtirishga turtki bo'layapti.

Tijorat banklarining jamg'armalarni investitsiyalarga safarbar qilish hamda ularni moliyaviy va iqtisodiy nuqtai nazardan eng samarali sohalarni moliyalashtirishga yo'naltirishni ta'minlovchi moliyaviy vositachi sifatidagi rolini oshirish O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida belgilangan eng dolzarb vazifalardan biri sifatida e'tirof etilgan.

Banklar tomonidan qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalar jumlasiga qimmatli qog'ozlarni chiqarish, harid qilish, sotish, ularning hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog'ozlarni boshqarish, ular bilan boshqa operatsiyalarni bajarish kabi operatsiyalar kiritiladi.



Mamlakatimiz tijorat banklarining investitsion faoliyatini so‘nggi yillarda o‘shirish dinamikasi kuzatilmoqda.

#### **4. XULOSA**

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni xulosa qilishimiz mumkinki, qimmatli qog‘ozlar bozorida tijorat banklari faolligini yanada oshirish, unga investorlarni jalb qilish uchun har tomonlama qulay sharoitlar, imtiyozlar yaratish xukumatimiz tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Ushbu bozorda shart-sharoitlarning yaratilishi tijorat banklari uchun qimmatli qog‘ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar salmog‘ini yanada kengaytirish va samaradorligini oshirish imkonini bermog‘da.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 5 noyabrdagi O‘RQ-580-son “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida” gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 25 dekabrdagi O‘RQ-598-son “Investitsiyalar va investitsion faoliyati to‘g‘risida” gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2015 yil 3 iyundagi O‘RQ-387-son “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida” gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi PF-6207-son “Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni.
5. Z.Bodie, A.Kane, A.Marcus. Investments. -10th Edition. McGraw-Hill Education, New York, 2014.
6. Зайиров Л., Насиров Э., Ханова Н., Асамходжаева Ш. Инвестиции. Учебное пособие. – Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2019. – 448 с.
7. Bektemirov Abdumalik, Malikova Dilrabo Muminovna, Axmedov Habib Farhod O‘g‘li TIJORAT BANKI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI // JMBM. 2023. №2.